

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

**"O'ZDAVYERLOYIHA" DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH
INSTITUTI**

**O.O'.DAVRONOV, Q.M.XOJIYEV,
B.N.INAMOV, H.K.BAG'BEKOV**

**QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN
YERLARDA HOLATI YOMON BO'LGAN
YERLARNI YO'QLAMADAN O'TKAZISH
BO'YICHA KO'RSATMALAR**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

**“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH
INSTITUTI**

(O.O‘.DAVRONOV, Q.M.XOJIYEV, B.N.INAMOV, H.K.BAG‘BEKOV)

**QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARDA
HOLATI YOMON BO‘LGAN YERLARNI YO‘QLAMADAN
O‘TKAZISH BO‘YICHA KO‘RSATMALAR**



Toshkent-2022 y.

UO‘K:

KBK:

O.O‘.Davronov, Q.M.Xojiyev, B.N.Inamov, H.K.Bag‘bekov.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda holati yomon bo‘lgan yerlarni yo‘qlamadan o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar. - Toshkent: 2022. - 15 b.

Mualliflar: O.O‘.Davronov, Q.M.Xojiyev, B.N.Inamov, H.K.Bag‘bekov

Taqrizchilar:

Parpiev G‘.T. – *“O‘zdavyerloyiha” DILI Bosh direktor o‘rinbosari,*
b.f.d., katta ilmiy xodim;

SH.K.Narbayev – *TIQXMMI, i.f.f.d. (PhD), dotsent.*

Mas‘ul muharrir:

R.A.Turayev – *“O‘zdavyerloyiha” DILI Bosh direktori*
t.f.d., katta ilmiy xodim.

O‘zbekiston hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar maydoni 20 mln hektardan ortiq, shundan 2014 yil hisobotiga ko‘ra, holati yomon bo‘lgan yerlar 456 859 hektarni tashkil etadi, holati yomonlashgan yerlar mamlakatimizning barcha hududlarida uchraydi.

Ushbu ko‘rsatmalarda O‘zbekistonning turli regionlaridagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, turli sabablarga ko‘ra holati yomonlashgan yerlarda (meliorativ tizimlari ishlamasligi oqibatida qishloq xo‘jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlarda; yer osti sizot suvlari qo‘tarilishi natijasida meliorativ holati yomonlashgan yerlarda; sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lgan va ikkilamchi sho‘rlangan yerlarda; suv ta‘minoti etishmaydigan va sug‘orish inshootlari yaroqsiz holga kelgan yerlarda; o‘ta toshloq va gips qatlami mavjud bo‘lgan yerlarda; daryo suvlarining qo‘tarilishi oqibatida, qirg‘oq bo‘yi ekin yerlari va ko‘p yillik daraxtzorlar yerlari yuvilib ketgan yerlarda; buloq suvlari qurib qolib, foydalanilmayotgan yerlarda; qishloq xo‘jalik ekinlari ekilmaslik oqibatida qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqsiz holatga tushgan yerlarda; foydalanilmasdan bo‘z holatiga aylangan kabi yerlarda) olib borilayotgan ishlarni o‘rganish, holati yaxshilangan yerlarni yer hisobotiga kiritish va ularni kelgusida holatini yaxshilash, qayta tiklash va oshirishga qaratilgan majmuaviy yo‘qlamadan o‘tkazish tartibi bayon qilingan.

Ko‘rsatmalar “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti Ilmiy-texnik kengashining 2021 yil 12 iyulidagi yig‘ilishi (№12 bayonnoma)da chop etishga tavsiya qilingan.

Tavsiyanoma qishloq xo‘jaligi mutaxassislari, yer tuzuvchilar, tuproqshunoslar, irrigatorlar, melioratorlar, bakalavr va magistrilar hamda ilmiy izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

© “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti, 2022 y.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish bo'yicha

KO'RSATMALAR

I. Umumiy qoidalar

Mazkur KO'RSATMALAR O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasining davlat yer kadastri tug'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son Farmoni, 2013 yil 19-apreldagi "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1958-son qarori va Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi Kengashining 2014 yil 29 iyuldagi 01-03/1-250-sonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasida "Yerlarni yo'qlamadan o'tkazish bo'yicha ko'rsatma"si (VNA-32-003-09; Toshkent, 2009) asosida ishlab chiqilib, tumanlardagi mavjud qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda meliorativ holati yomon bo'lgan, suv ta'minoti etishmaydigan, sug'orish inshootlari yaroqsiz holga kelib qolgan, surunkasiga ekin ekilmasdan kelinayotgan (keyingi matnlarda **holati yomon yerlar**) yerlarni yo'qlamadan o'tkazish ishlarini amalga oshirilishini belgilaydi.

Yo'qlama ishlari tuman ma'muriy chegarasidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning holati yomon bo'lgan yer maydonlarida o'tkaziladi.

Yo'qlama ishlari tuman ma'muriy chegarasidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning holatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlarni o'rganish maqsadida, jumladan:

- meliorativ tizimlari ishlamasligi oqibatida qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlarda;

- yer osti sizot suvlari ko'tarilishi natijasida meliorativ holati yomonlashgan yerlarda;

- sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan va ikkilamchi sho'rlangan yerlarda;

- suv ta'minoti etishmaydigan va sug'orish inshootlari yaroqsiz holga kelgan yerlarda;

- o'ta toshloq va gips qatlami mavjud bo'lgan yerlarda;

- daryo suvlarining ko'tarilishi oqibatida, qirg'oq bo'yi ekin yerlari va ko'p yillik daraxtzorlar yerlari yuvilib ketgan yerlarda;

- buloq suvlari qurib qolib, foydalanilmayotgan yerlarda;
- qishloq xo'jalik ekinlari ekilmaslik oqibatida qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz holatga tushgan yerlarda;
- foydalanilmasdan bo'z holatiga aylangan yerlarda olib borilayotgan ishlarni o'rganish hamda holati yaxshilangan yerlarni yer hisobotiga kiritish va kelgusida holatini yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Yo'qlama ishlarini yuqori darajada tashkil qilish maqsadida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish to'g'risida tuman hokimining farmoyishi qabul qilinishi lozim.

Tuman hokimining farmoyishi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy va huquqiy muammolarni tezkorlik bilan hal qilish maqsadida tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo'yicha o'rinbosari, tuman qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limlari boshliqlari, Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i, gidrogeologik meliorativ ekspeditsiyasi uchastkasi boshlig'i, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi hamda boshqa tegishli tashkilotlarning vakillari tarkibiga tuman ishchi komissiyasi tuziladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish ishlari qo'yidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tayyorgarlik ishlari;
- dala ishlari;
- kameral ishlari;
- yo'qlamadan o'tkazish natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash va tasdiqlash:

II. Tayyorgarlik ishlari

Kadastr agentligining tuman bo'limidan tumanning ma'muriy chegarasidagi mavjud sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda holati yomon bo'lgan yerlarni oxirgi yillarda o'tkazilgan yo'qlama ishlari natijasi bo'yicha tayyorlangan hujjatlar to'plami va boshqa kerakli hujjatlar olib o'rganiladi.

Tuman Qishloq xo'jaligi hamda Suv xo'jaligi bo'limlaridan, shuningdek, Gidrogeologik meliorativ ekspeditsiyasi uchastkasi va Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining bo'limidan sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning holatini yaxshilash bo'yicha oxirgi yillarda, ya'ni o'tkazilgan yo'qlamadan so'ngi davrlarda byudjet mablag'lari hamda yerdan foydalanuvchilarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar o'rganib chiqiladi.

Tumanning ma'muriy chegarasidagi sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni hudud (massiv)lar bo'yicha 1:10000 masshtabdagi, ayrim holatlarda 1:25000 masshtabdagi xaritalarga yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar kesimida ularning chegaralari tushirilib, konturlar bo'yicha yer maydonlarini hisoblash qaydnomalari tayyorlab olinadi.

III. Dala ishlari

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish bo'yicha dala ishlari "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash institutining hududiy bo'linmalari tomonidan yerdan foydalanuvchi va ijarachilar bilan yoki ularning vakolatli vakillari bilan birgalikda bajariladi. Zarur bo'lgan hollarda tuman Qishloq xo'jaligi va Suv xo'jaligi bo'limlari, Fyermiyer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari tuman Kengashi, Gidrogeologik meliorativ ekspeditsiyasi uchastkasi, Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi vakillari hamda boshqa mutaxassislar jalb etiladi.

Dala ishlari bo'yicha har bir yerdan foydalanuvchi va ijarachilar bo'yicha alohida 2 (ikki) nusxadan iborat dalolatnoma tuziladi va ish bajaruvchi hamda yerdan foydalanuvchi va ijarachi tomonidan imzolaniib, yo'qlamadan o'tkazish ishlarining natijalari tuman hokimining qarori bilan tasdiqlangandan so'ng 1 (bir) nusxasi yerdan foydalanuvchi va ijarachiga beriladi. *(Dalolatnoma namunasi 1-ilovada ko'rsatilgan).*

Dalolatnomada yerdan foydalanuvchi va ijarachilarning jami yer maydoni, shuningdek sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan

yerlari va mazkur maydonlardagi holati yomon bo'lgan yerlar aniq ko'rsatiladi.

Dalolatnomada holati yomon bo'lgan yerlar to'g'risida to'liq ma'lumot ko'rsatilishi kerak, jumladan:

- kontur raqami;
- o'zlashtirilgan vaqti;
- holati yomonlashishiga olib kelgan sabablari;
- qaysi yildan boshlab foydalanilmay kelinayotganligi;
- yerning holatini tiklash bo'yicha oxirgi yo'qlama o'tkazilgandan so'ngi davrlar davomida amalga oshirilgan ishlarning va maydoni, shundan:

- a) byudjet mablag'lari hisobidan;
- b) yerdan foydalanuvchilarning mablag'i hisobidan;
- qancha maydon qayta tiklangan (qayta tiklangan maydon bo'lsa);
- hozirgi kunda qancha yer maydonidan foydalanayotganligi (ekin turlari);
- hozirgi kundagi haqiqiy ahvoli;
- yerlarning holatini yaxshilash uchun taklif va tavsiyalar.

Dala ishlarida tuman ma'muriy chegarasidagi har bir hudud (massiv)lar bo'yicha 1:10000 masshtabdagi, ayrim holatlarda 1:25000 masshtabdagi xaritada yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yer uchastkalarining chegaralari, maydoni va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarning chegaralari va maydonlari aniq belgilab olinadi (2-ilova).

IV. Kameral ishlarni bajarish

Dala ishlarining natijalari bo'yicha har bir hudud (massiv)ga yerdan foydalanuvchi va ijarachilarning yer maydonlari chegaralari, ularning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlaridagi holati yomon bo'lgan yerlarning chegaralarini belgilangan 1:10000 masshtabdagi, ayrim holatlarda 1:25000 va 1:50 000 masshtabdagi xaritalar 2 nusxada tayyorlanadi.

Har bir hudud (massiv) bo'yicha yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning konturlari kesimida qishloq xo'jaligi yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish bo'yicha ma'lumot tuziladi (1-jadval).

Tuman bo'yicha hudud (massiv)lar kesimida yerdan foydalanuvchi va ijarachilarning sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan

yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan bo'yicha ma'lumot tuziladi (2-jadval).

Viloyat bo'yicha tumanlar kesimida sug'oriladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish natijalari bo'yicha ma'lumot tuziladi (3-jadval).

Dala va kameral ishlarining natijalari hudud (massiv)larning elektron raqamli qishloq xo'jaligi xaritalariga belgilangan tartibda shartli belgilar asosida tushiriladi.

Yo'qlamadan o'tkazish ishlarining natijalarida bajarilgan ishlar va aniqlangan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni istiqbolda yaxshilash uchun amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha qisqacha tushuntirish xati, taklif va tavsiyalar tayyorlanadi.

V. Yo'qlamadan o'tkazish natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash va tasdiqlash

Tuman ma'muriy chegarasidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish natijalari bo'yicha tayyorlangan 1-2 jadvallar va qisqacha tushuntirish xati, tuman ishchi komissiyasida ko'rib chiqilib, komissiya bayonnomasi rasmiylashtiriladi va tuman hokimining qarori bilan tasdiqlanadi.

Yo'qlamadan o'tkazish ishlarining natijalari tuman hokimining qarori bilan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy ma'lumotlar bo'yicha hujjatlar to'plami 3 (ikki) nusxada tayyorlanadi. Uning 1 (bir) nusxasi Kadastr agentligining tuman bo'limiga, yana 1 (bir) nusxasi tuman Qishloq xo'jaligi bo'limiga, hujjatlarning asl nusxalari va elektron varianti "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash institutining hududiy bo'linmalari arxivida saqlanadi.

Hujjatlar to'plami quyidagilardan iborat:

- dalolatnomalar;
- yerdan foydalanuvchi va ijarachilar kesimidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda holati yomon bo'lgan yerlar tushirilgan hudud (massiv) bo'yicha tegishli masshtabdagi xarita va uning elektron raqamli varianti;
- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlar bo'yicha 1-; 2-; 3- jadvallar;
- tushuntirish xati;
- ishchi komissiya bayonnomasi;
- tuman hokimining qarori.

Umumlashtirilgan hujjatlar to‘plami, Kadastr agentligining viloyat boshqarmasiga, Qishloq xo‘jaligi vazirligining viloyat boshqarmasiga, “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutining arxiviga topshiriladi.

Umumlashtirilgan hujjatlar to‘plami quyidagilardan iborat:

- viloyat bo‘yicha tushuntirish xati;
- ishchi komissiyalarining bayonnomalari;
- tuman hokimlarining qarorlari;
- 1-; 2-; 3- jadvallar.

VI. Yakuniy qoidalar

Ushbu KO‘RSATMA ni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Ushbu KO‘RSATMA talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda
holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish
ishlarini amalga oshirish bo'yicha KO'RSATMALARga
1-ilova

_____ viloyat _____ tumani
_____ hududi (massiv)dagi _____

(yerdan foydalanuvchi va ijarachi nomi)

Qishloq xo'jaligi yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish
bo'yicha

DALOLATNOMA

202__ y. "____" _____ hududi (massivi)

Biz quyida imzo chekuvchilar "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash
institutining _____ mutaxassisi _____

(bo'linmaning nomi)

(familiyasi, ismi sharifi)

ish bajaruvchi, _____ rahbari (yoki vakolatli vakili)

(yerdan foydalanuvchi va ijarachi nomi)

_____ viloyat _____ tumani
_____ hududi (massiv)dagi _____

(yerdan foydalanuvchi va ijarachi nomi)

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardagi holati yomonlashgan yer maydonlarini
o'rganib chiqish natijasida quyidagilar aniqlandi:

Kontur raqamlari _____

Jami yer maydoni _____ ga, shundan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar
_____ ga, sug'oriladigan yerlardagi holati yomon bo'lgan yer maydon _____ ga

Holatini yomonlashish sabablari _____

O'zlashtirilgan vaqti _____ yil.

Qaysi yildan boshlab foydalanilmagan _____yil.

Yerning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha oxirgi yillar davomida amalga oshirilgan ish turlari va yer maydoni _____ga jumladan:

byudjet mablag'i hisobidan _____

yerdan foydalanuvchining mablag'i hisobidan_____

Qancha yer maydon qayta yaxshilangan _____ga

Hozirgi kunda qanchasidan foydalanilmoqda (ekin turlari)_____

Hozirgi kundagi ahvoli_____

Yerni holatini yaxshilash uchun taklif va tavsiyalar_____

Bajaruvchi _____

(F. I. SH.)

Yerdan foydalanuvchi: _____

(F.I.SH.)

Tasdiqlayman:

Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i:

(F. I. SH.)

Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i:

(F. I. SH.)

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda
holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish
ishlarini amalga oshirish bo'yicha KO'RSATMALARga
2-ilova


_____viloyat_____tumani
_____ning
(massiv) holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish

XARITASI

2021 y

Masshtab 1:10 000, 25 000, 50 000

Shartli belgilar



Kadastr agentligining tuman bo'limi boshlig'i

(imzo, muhr)

(F.I.SH.)

“O'zdavyerloyiha” DILI vakili

(imzo, muhr)

(F.I.SH.)

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki
ijarachi rahbari

(imzo, muhr)

(F.I.SH.)

tuman _____ massivida yer egalari, yerdan foydalanuvchi va ijarachilar kesimida qishloq xo'jaligi yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

[illegible]

2-jadval

**_____ tuman massivlar kesimida qishloq ho'jaligi yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish
natijalari bo'yicha
MA'LUMOT**

T/r	Massi- v-lar nomi	Yerdan foydalanuvchilar soni	Jami qiShloq xo'jaligi yer maydoni, ga	Jami sug'oriladigan yer maydoni, ga	Shundan holati yomonlaShgan yerlar, ga	SHu jumladan																Shundan		Hozirda yerdan foydalanish ahvoli	
						Meliorativ holati yomonlangan yerlar, ga	Shundan		Suv ta'minoti yetishmaydigan va sug'orish inshootlari yaroqsiz holga kelib qolgan yerlar	Shundan				Melioratsiya tizimlari ishlamsligi oqibatida ishdan chiqqan yerlar	Shundan		Buloq suvlari qurib qolib foydalanilmayotgan yerlar	Daryo suvlarining ko'tarilishi oqibatida, qirg'oq bo'yi ekin yerlari yuvilib ketgan yerlar	O'ta toShloq va gips qatlami mavjud yerlar	QiShloq xo'jalig ekinlari ekinlasligi oqibatida yaroqsiz holatga tuShgan yerlar	Foydalanmasdan bo'z holatga aylangan yerlar	Byudjet mablag'lari hisobidan	Erdan foydalanuvchining mablag'i hiobidan	QiShloq xo'jaligi ekinlarini ekilib kelinayotgan yerlar	Surunkali raviShda yildan beri foydalanilmay kelayotgan yerlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26

**viloyat tumanlarida qishloq ho'jaligi yerlardagi holati yomon bo'lgan yerlarni yo'qlamadan o'tkazish
natijalari bo'yicha
MA'LUMOT**

T/r	Tumanlar nomi	Yerdan foydalanuvchilar soni	Jami qishloq xo'jaligi yer maydoni, ga	Jami sug'oriladigan yer maydoni, ga	Shundan holati yomonlashgan yerlar, ga	Shu jumladan																Shundan		Hozirda yerdan foydalaniSh ahvoli	
						Meliorativ holati yomonlangan yerlar,	Shundan		Suv ta'minoti yetishmaydigan va sug'orish inShoatlari yaroqsiz holga kelib qolgan yerlar	Shundan				Melioratsiya tizimlari ishlamsligi oqibatida iShdan chiqqan yerlar	Shundan		Buloq suvlari qurib qolib foydalanilmayotgan yerlar	Daryo suvlarining ko'tariliShi oqibatida, qirg'oq bo'yi ekin yerlari yuvilib ketgan yerlar	O'ta toShloq va gips qatlami mavjud yerlar	QiShloq xo'jalig ekinlari ekilmasligi oqibatida yaroqsiz holatga tuShngan	Foydalanmasdan bo'z holatga aylangan yerlar	Byudjet mablag'lari hisobidan	Erdan foydalanuvchining mablag'i hiobidan	QiShloq xo'jaligi ekinlarini ekilib kelinayotgan yerlar	Surunkali ravishda yildan beri foydalanilmay kelayotgan yerlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26

(O.O'.DAVRONOV, Q.M.XOJIYEV, B.N.INAMOV, H.K.BAG'BEKOV)

**QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARDA HOLATI
YOMON BO'LGAN YERLARNI YO'QLAMADAN O'TKAZISH
BO'YICHA KO'RSATMALAR**

Bosishga ruhsat etildi: 18.01.2021 yil
Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabog'i 0,6. Adadi 100. Buyurtma № 18-01
Тел: (99) 832 99 79; (97) 815 44 54
«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shaxri, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.